



2024-yil. 3-son

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>



Bahor keldi seni so'roqlab...

*Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...*

*Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.*

*Mana qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yoshi to'kdi-yu, chekindi nari.*

КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА.....	53
-----------------------	----

TAHLIL

O'tkir Abdunazarov. Esse janri va Nosir Fozilov ijodi.....	56
Sardor Baxriddinov. G'afur G'ulom asarlaridan kelib chiqadigan huquqbuzarlik holatlarining bayoni.....	60
Alimardon Ergashev. Said Ahmad "Taqqdir, taqqdir, muncha beshafqatsan!" hikoyasini blum taksonomiyasi orqali o'rganish.....	61
Nargiza Mirzayeva. Mediada bolalar uchun kontent yaratish tamoyillari.....	64
Shohinur Rahmataliyeva. "Alpomish" dostonida Barchin obrazining o'rganilishi.....	66
Amira Ibatova. Non bilan bog'liq leksemalar tahlili.....	68
Nigora Abdusalomova. "Zevaxon" dostonining o'rganilishi.....	70
Normat Yuldashev. Cho'lpon she'riyatida poetik tilning xalqchillashuvi.....	72
Gulhoyo Isabayeva. "Quyoshim – enam" qissasida personajlar sisitemasi.....	75
Nazokatxon Tojibayeva. Jamiyatda xotin-qizlarning rolini kuchaytirishga xizmat qiluvchi qaror va farmonlar hamda ularning ijtimoiy ahamiyatliligi.....	76

PEDAGOGIKA

Dilbar Ibragimova, Malika Muxamadiyeva. Xorijiy tillarni o'qitishning ta'lim tizimida tutgan o'rni va o'qitishning nazariy mezonlari.....	79
Maysara Axmedova. Hadislarda ekologik tarbiya masalalari.....	82
Mohigul Fozilova. O'zbek tili ta'limi jarayonida talabalarining ijodiy faoliyatini loyihalashtirish metodikasi.....	86
Adash Rustamova. Pedagogical approaches and diagnostics of teching in higher education.....	88

METODIK TAVSIYA

Nilufar Abidova. Inklyuziv ta'lim sharoitida olib boriladigan pedagogik faoliyatning pedagogik imkoniyatlari.....	92
Nilufar Turg'unova. Ona tili ta'limida loyiha texnologiyasidan foydalanishga oid mavjud holat tahlili.....	94
Surayyo Inomjonova. Fantastik asarlar orqali o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish usullari.....	98
Zamira Yuldasheva. tili ta'limida loyiha texnologiyasidan foydalanishga oid mavjud holat tahlili.....	101

TILSHUNOSLIK

Umidxon Ahmadova. Perifraza va frazeologik birliklar.....	104
Ezoza Hazratqulova. Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi psixolingvistikaning ahamiyati va nutq faoliyati turlari.....	107
Gulshoda Ruziyeva. Sotsiopragmatik tahlilda nutqiy aktlarning o'rni.....	111
Nargiza Aliyeva. Evfemizm va ulardan foydalanish asoslari.....	112
Shohsida Eshbo'tayeva. Til tarkibiga musiqa terminlarining ta'siri: dunyo tilshunosligi misolida.....	114
Nigina Axmedova. Til va madaniyatning o'zaro aloqasi.....	117
Sarvinov Mardonova, To'liq Asadov. Ayrim muallif nutqi neologizmlarining leksikografik talqini xususida.....	119
Lobar G'aniyeva. Davlat boshqaruvi terminlarini tematik tasniflash nazariyasi.....	122
Manzura Ernazarova. Masofiy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya kompetentsiyasini rivojlantirish.....	124
Maxfuza Axmadjonova. O'zbek tilshunosligida matn muammosining o'rganilishi.....	126
Sadoqat Samandarova. Evfemik frazeologizmlar tushunchasi va uning o'rganilish tarixi.....	128
Dilzodaxon Saydaliyeva. O'zbek struktur tilshunosligining rivojida professor Sh.Iskandarovanning o'rni.....	130
Dilara Dospanova. Til va madaniyatning o'zaro ta'sirida antroponimlar.....	133

KICHIK TADQIQOT

Intizor Abdujabborova. Sirojiddin Sidqiy Xondayliqiy "Sad Irshodi Mullo Sidqiy Xondayliqiy" va "Zarbulmasali Sidqiy" asarlarining o'rganilishi.....	135
Shohista Abduqodirova. Ramziy-majoziy ma'no asosida axborot yetkazish.....	138
Zilola Mirqodirova. The role of pronunciation for english students.....	142

Nilufar TURG'UNOVA,
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
 o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti*

ONA TILI TA'LIMIDA LOYIHA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHGA OID MAVJUD HOLAT TAHLILI

Annotatsiya: maqolada loyihaga asoslangan ta'limning mohiyati, til ta'limida loyiha texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati xususida so'z yuritilgan. Davlat ta'lim standarti, umumiy o'rta ta'lim Ona tili fani dasturi, darsliklar hamda Ona tili fanidan o'qituvchi kitoblari tahlil qilinib, ona tili o'qitishda loyiha texnologiyasidan foydalanishning mavjud holati yoritilgan. Yangi avlod Ona tili darsliklaridagi loyihaga asoslangan topshiriqlar yuzasidan fikr-mulohazalar va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: *loyihaga asoslangan ta'lim, o'quv loyihasi, Davlat ta'lim standarti, Milliy o'quv dasturi, ona tili darsligi, topshiriq.*

Annotation: the article talks about the essence of project-based education, the importance of using project technology in language education. The state education standard, general secondary education mother tongue science program, textbooks and teacher's books on mother tongue science were analyzed, and the current state of using project technology in mother tongue teaching was highlighted. Comments and recommendations are given on the project-based assignments in the New Generation Mother Tongue textbooks.

Key words: *project-based education, educational project, State educational standard, National curriculum, mother tongue textbook, assignment.*

Аннотация: в статье рассматривается сущность проектного образования, важность использования проектной технологии в языковом образовании. Проанализированы государственный образовательный стандарт, программа по родному языковедению общего среднего образования, учебники и учебники по родному языку, а также освещено современное состояние использования проектной технологии в обучении родному языку. Даны комментарии и рекомендации к проектным заданиям в учебниках родного языка.

Ключевые слова: *проектное образование, образовательный проект, Государственный образовательный стандарт, Национальная учебная программа, учебник родного языка, задание.*

Til ta'limida loyihaga asoslangan o'quv topshiriqlaridan foydalanish o'quvchi tomonidan lingvistik bilimni ongli o'zlashtirilishiga, nazariy ma'lumotlarni amaliyotda mustahkamlanishiga katta yordam beradi. Bugungi kunda ona tilini o'qitishda o'quv loyihalari bilan ishlashga alohida e'tibor berilmoqda, loyihaga asoslangan ta'lim o'quv dasturlari, darsliklarda o'z aksini topmoqda. Quyida ta'lim mazmunini belgilovchi asosiy huquqiy-me'yoriy hujjatlar va manbalarda ona tili darslarida loyihaviy topshiriqlar bilan ishlashning mavjud holatini tahlil qilamiz.

Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlari ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslaridan bo'lib, ta'lim mazmunini tashkil etadi.

Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi.

DTS ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. DTS o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar,

qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi [1:157].

2017-yilda tasdiqlangan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTSda Ona tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi: o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat, deb belgilangan [6]. Mazkur DTSda Ona tili faniga oid bo'lgan nutqiy hamda lingvistik kompetensiya bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchilariga qo'yilgan malaka talablari aks ettirilgan.

Ma'lumki, o'quv dasturi DTS asosida tuziluvchi, muayyan fan bo'yicha o'qitiladigan bilim mazmunini, mavzular ketma-ketligini, soatlar taqsimotini o'zida ifodalovchi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlardan biridir. Ona tili fanining o'quv dasturida har bir sinfda o'qitilishi ko'zda tutilgan grammatik mavzular, o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan lingvistik tushunchalar ko'rsatib o'tilgan. Ona tili fani o'quv dasturini tahlil qilar ekanmiz, unda o'quv-loyihaviy faoliyat, loyihaga asoslangan ta'lim, loyiha topshiriqlariga o'rin ajratilmaganligini, urg'u ko'proq grammatik atamalarga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida ko'zgatashlanayotgan turli kamchiliklar, o'quvchilarning o'zlashtirishi, maktabda o'qitilayotgan fanlar mazmuni bilan bog'liq muammolar biz tayanib kelayotgan standart va dasturlar eskirganligini, ta'lim tizimimiz yangilanishga muhtojligini ko'rsatib berdi. Ayni maqsadda yangicha yondashuvga asolangan, ilg'or tajribalarni o'zida mujassamlashtirgan Milliy o'quv dasturi ishlab chiqildi.

Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 31-martdagi "Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish to'g'risida"gi buyrug'i asosida xalqaro talablarga javob beruvchi umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish ishlari boshlandi va 2020-yilning oktabr oyida dastur loyihasi taqdim etildi. Milliy o'quv dasturining loyihasi yuqori salohiyatli milliy va xalqaro ekspertlar, Unicef, USAID va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan xorijiy konsultantlar bilan birgalikda tayyorlangan [9].

2022-yil 11-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Mazkur farmonda 2022-yilning 1-sentabridan ta'lim jarayoniga yangi Milliy o'quv dasturini joriy etish, yangi Milliy o'quv dasturi asosida pedagog kadrlarning malakasini oshirish, yangi avlod darsliklarini yaratish bo'yicha mualliflar maktabini shakllantirish kabi chora-tadbirlar belgilab berildi.

Milliy o'quv dasturida fanlarda o'qitiladigan nazariy va amaliy mavzularning mutanosibligiga, fanlar o'rtasidagi integratsiyani ta'minlashga, o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor berilgan. Xususan, Ona tili fanining maqsadi o'quvchilarga faqatgina grammatik qoidalarni yodlatish emas, o'quvchilarda tanqidiy tahlil qila olish, erkin fikr bildira olish ko'nikmalarini ham rivojlantirishdan iborat ekanligi ta'kidlab o'tilgan: "Ona tili" nafaqat leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fandır. O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o'qib tushunishga alohida e'tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi. O'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqati rivojlantiriladi [7:3]. Mazkur maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, o'qitishning samarali usullaridan foydalanish ko'zda tutilgan. Xususan, Milliy o'quv dasturida avvalgi dasturlar va standartlardan farqli ravishda Ona tili darslarida loyihaga asoslangan o'quv topshiriqlari bilan ishlashga alohida e'tibor berilgan.

Boshlang'ich sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida, shuningdek, 5-6-sinflarda o'quv loyihalari bilan ishlash Ona tili ta'limi mazmunida alohida aks ettirilgan. 5-sinf o'quvchisiga og'zaki nutq bo'yicha nutqiy mavzu asosida loyiha tayyorlab, gapirib bera olish, yozma nutq bo'yicha esa berilgan yo'riqnoma asosida loyiha tayyorlash talablari qo'yilgan. 6-sinf o'quvchisi esa o'z biznes rejasini tuza olishi, fikrlarini tartiblab, loyiha tayyorlay olishi zarurligi belgilangan. Loyiha taqdimoti uchun alohida soatlar ajratilgan.

Ta'limda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ko'priq vazifasini o'tovchi, o'quvchi suyanadigan asosiy adabiyot bu darslikdir.

Darslik muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba bo'lib, u mazmuni va tuzilishiga ko'ra fan bo'yicha yaratilgan o'quv dasturiga mos keladi. G'oyaviy va metodik jihatdan mukammal bo'lgan darslik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, o'quvchilar uchun qiziqarli, iloji boricha qisqa, tushunarli, ko'rgazmalilik nuqtayi nazaridan estetik xususiyatga ega bo'lishi kerak [2:121].

Yangi avlod ona tili darsliklarining mazmun-mundarijasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, grammatik ma'lumotlarni kontekstda berishga, ham nutqiy, ham lingvistik kompetensiyani shakllantiradigan mashq va topshiriqlar bilan ishlashga alohida urg'u berilganligini ko'rishimiz mumkin. Darslikdagi matnlar rang-barangligi, o'quvchining yoshi va qiziqishlariga mosligi hamda turli uslublarga oidligi bilan diqqatga sazovordir. Yangi nashr etilgan ona tili darsliklariga kiritilgan har bir ma'lumot fanning boshqa sohalar bilan integratsiyasini ta'minlaydi. Shuningdek, mazkur darsliklarda avvalgi ona tili darsliklarimizdan farqli ravishda o'qib tushunish, tinglab tushunish, tanqidiy, tahliliy fikrlashni talab qiluvchi mashq va topshiriqlar talaygina. Ona tili ta'limida ilk bor loyihaga asoslangan topshiriqlarning darsliklardan o'rin olganligi diqqatga sazovordir.

Ma'lumki, darsliklarda mashq, turli ko'rinishdagi savol va topshiriqlar alohida o'rin tutadi. Ular orqali o'rganilgan o'quv materiali mustahkamlanadi, o'tilganlar takrorlanadi, muayyan ko'nikmalar shakllantiriladi. Darsliklardagi savol va topshiriqlarni uch guruhga bo'lish mumkin [3:183]:

Birinchi guruhga bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirilgan narsalarni esga tushirish va malakalarni shakllantirishga doir savol va topshiriqlar kiradi.

Ikkinchi guruh tafakkurni o'stiradigan (mustaqil ishlashni, taqqoslash, umumlashtirish, baholash, xulosa chiqarish, bilimlar tizimini mustahkamlash, aniqlash va tajribaga solishni talab qiladigan) savol va topshiriqlardan iboratdir.

Uchinchi guruh o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llashga (mustaqil ishlarni bajarish va malakalarni egallashga) doir savol

va topshiriqlarni o'z ichiga oladi. O'quv-loyihaviy faoliyat bilan bog'liq topshiriqlarni ikkinchi va uchinchi guruhga kiritish mumkin.

Quyida umumta'lim maktablari Ona tili darsliklarida loyiha texnologiyasiga murojaat qilingan o'rinlarni ko'rib chiqamiz.

6-sinf Ona tili darsligida loyihaga asoslangan quyidagi ko'rinishdagi topshiriqlar mavjud:

1. "Qayta ishlanadigan chiqindilar" mavzusi (tabiatni asrash, chiqindilarni qayta ishlashning ahamiyati, fikrni tartiblash va umumlashtirish, taqdimot tayyorlash,

fe'llarning munosabat shakli, gap oxiridagi tinish belgilari). Mazkur bobda biznes reja loyihasini yaratish bo'yicha topshiriq berilgan. Dastlab g'oya o'ylab topish uyga vazifa sifatida berilgan [4:45-47]:

Keyingi darsda biznes g'oya yaratish topshirig'i beriladi. Chiqindilarni qayta ishlash bilan bog'liq loyiha haqida o'ylang. O'z g'oyalaringizni taqdimot qilish uchun tayyorlaning.

Keyingi mavzuda o'quvchilar berilgan qolip asosida o'z biznes rejalari haqida so'zlab berishlari lozim:

Biznes rejangizni quyidagi ko'rinishda ifodalang.

Mening biznes rejam
Maqsad
Buni qanday amalga oshiraman?
Xarajatlar
Zarur resurslar (kerakli narsalar)
Ish jarayonining borishi
Foyda

Mazkur loyiha individual loyiha turiga mansub bo'lib, davomiyligiga ko'ra qisqa muddatli loyiha turiga kiradi. Loyiha ishini faoliyat turiga ko'ra amaliy-ijodiy loyiha turi deb hisoblash mumkin, chunki topshiriqda aytilganidek g'oya izlash, biznes loyihasini yaratish, reja tuzish, maqsad va vazifalarni belgilash o'quvchidan ijodkorlik, kreativlik, tahliliy-tanqidiy fikrlashni talab qiladi. Loyihaning amaliy tarafini esa taqdimot yaratish topshirig'ida ko'rishimiz mumkin. 6-sinf Ona tili darsligi bo'yicha ishlab chiqilgan metodik qo'llanmada topshiriqning maqsadi, qaysi ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilganligi hamda bajarish tartibi xususida qisqacha izoh berib o'tilgan [5:44].

Topshiriq shartida o'quvchidan sinfdoshi tuzgan loyiha bilan tanishish va unga munosabat bildirish ham

so'ralgan. Topshiriqning ayni shu qismi o'quvchida o'zgalar fikrini eshitish, tahlil qilish, unga munosabat bildirish olish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

2. "Konstitutsiya – bosh qomusimiz" mavzusi (qonunlarning jamiyatdagi o'ri, insonning huquq va burchlari, sohaga oid til birliklari, fe'llarning munosabat shakli, huquqiy mazmundagi matnni tushunish).

"Konstitutsiya – bosh qomusimiz" mavzusida o'quvchilarga ijtimoiy-axloqiy qoidalar ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan loyiha topshirig'i berilgan [4:196]:

Guruhlariga bo'lining. "Maktab qoidalari" loyihasini ishlab chiqing va taqdimot qiling. Qoidalar ham o'quvchilar, ham o'qituvchilar uchun ishlab chiqilishi lozim. Qoidalarni ishlab chiqishda quyidagilarga diqqat qiling.

- Bu qoida bizga nima beradi?
 - Bu qoida keraklimi?
 - Bu qoidaga amal qilishning imkoni bormi?
 - Bu qoidaga amal qilinmasa, qanday jazo kutadi?
- Boshqa guruhlarining taqdimotini tinglang.

Quyidagilarga diqqat qiling.

- Qaysi qoidalar sizniki bilan o'xshash?
- Qaysi qoidalar sizda uchramaydi?
- Qaysi qoidalar kerakli va amal qilishini lozim?

Shuningdek, barcha o'quvchilar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarini birlashtirgan holda "Maktab qoidalari" kitobini yaratish vazifasi ham berilgan. "Maktab qoidalari" kitobi qanday qismlardan iborat bo'lishi lozimligi qayd etib o'tilgan. Uyg'a vazifa sifatida esa oila a'zolari bilan maslahatlashgan holda "Oiladagi qoidalar" kitobini tayyorlash so'ralgan.

Mazkur loyiha ishi ham individual ham jamoaviy ishlashga qaratilgan. O'quvchi dastlab yakka o'zi maktab qoidalarini ishlab chiqsa, loyihaning keyingi bosqichida barcha o'quvchilarning tavsiyalari birlashtirilgan holda umumiy qoidalar kitobi yaratiladi, bu esa o'z navbatida jamoa bo'lib ishlashni, o'zaro fikr almashishni, har bir o'quvchidan o'z fikrini himoya qilishni talab qiladi. Faoliyat turiga ko'ra esa loyihani amaliy-ijodiy turga kiritish mumkin: o'quvchi berilgan topshiriqqa ijodiy yondashgan holda amalda aniq bir mahsulot – kitob yaratishi lozim. Lekin ushbu loyiha ishini o'quvchiga yetkazib berishda ayrim kamchiliklar kuzatilgan. O'qituvchilar uchun mo'ljallangan metodik qo'llanmaga ko'ra, mazkur loyiha ishi bilan "Konstitutsiya – bosh qomusimiz" mavzusining 3-soatida ishlanadi, ya'ni loyiha uchun 1 soat ajratilgan [5:172]. Fikrimizcha, topshiriqda berilgan vazifalarning barchasini: guruhlariga bo'linish, "Maktab qoidalari" loyihagini ishlab chiqish, taqdimot qilish, boshqa guruhlarining taqdimotini tinglash, barchaning qoidalarini umumlashtirgan holda kitob yaratish, bajarilgan loyihani baholash ishlarini 45 daqiqada amalga oshirish imkonsiz. Ushbu o'quv loyihagini

kamida ikki soatga mo'ljallash, vazifalarni darslarga taqsimlagan holda bosqichma-bosqich bajartirish mumkin. Birinchi darsda o'quvchiga loyihaning maqsadi tushuntirish, guruhlariga bo'lish, o'z loyihalarini taqdim etish va muhokama qilish ishlari amalga oshirilsa, keyingi darsda umumiy "Maktab qoidalari" kitobi ustida ishlansa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shuningdek, topshiriqda o'quvchiga shunchaki qoidalarini yozib chiqing emas, kitob yarating deyilgan. Bu vazifa o'quvchidan qo'shimcha mehnat, vaqt, ijodkorlik talab qilishini hisobga olish zarur.

Yuqorida 6-sinf Ona tili darsligidagi loyihaga asoslangan topshiriqlarni ko'rib chiqdik va qisqacha tahlil qilishga harakat qildik. Topshiriqlar o'quvchi yoshiga va darslikdagi nutqiy mavzularga mos; loyiha uchun tanlangan mavzular (chiqindilarni qayta ishlash, maktab, oila qoidalari) dolzarb, amaliy ahamiyatga ega hamda o'quvchining kundalik hayoti bilan bog'langan. O'quv-loyihaviy faoliyat ham nutqiy, ham lingvistik kompetensiya ustida birdek ishlash imkonini beradi. Berilgan o'quv loyihasi ustida ishlash davomida o'quvchi o'rgangan nazariy bilimlarni bevosita amaliyotda qo'llab, mustahkamlab boradi, matn yaratish, matnda so'zlarni tog'ri qo'llash, o'z fikrini asosli va ifodali tarzda yetkazib bera olish, yozma nutq savodxonligi ustida ishlaydi. Loyihani taqdim qilishda esa o'quvchining og'zaki nutq ko'nikmalari rivojlanadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Milliy o'quv dasturida loyiha asosida o'qitishga e'tibor qaratilganligi va yangi avlod Ona tili darsliklarida loyihaga asoslangan topshiriqlar berilganligi diqqatga sazovordir. Ta'limning har bir bosqichida o'quvchilarning o'quv-loyihaviy faoliyatini samarali tashkil etish, darsliklarda loyihaviy topshiriqlar sonini ko'paytirish, mavjud topshiriqlarni mukammallashtirish, o'quvchilar tomonidan yaratilgan loyihalarning taqdimoti va baholash, tahlil qilish jarayonlariga alohida soatlar ajratish ishlari amalga oshirilsa ona tili ta'limida ijobiy yutuqlardan biri bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R., Voxidova N., Raxmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T: "Fan va texnologiya", 2010. 464 bet.
2. Toxtaxodjayeva M., Nishonova S., Hasanboyev J. va b. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi) – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti", 2010. 400 bet.
3. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika: Kasb-hunar kollejlari uchun darslik – Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2013. 495 bet.
4. Mavlonova K. va b. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 224 bet.
5. Mavlonova K. va b. Ona tili 6-sinf. Metodik qo'llanma – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 192 bet.
6. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi – Toshkent, 2010.
7. Ona tili fani Milliy o'quv dasturi – Respublika ta'lim markazi, 2022/2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash tog'risida"gi farmoni. 11.05.2022. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/-6008663#-6487242>.
9. "Zamonaviy darsliklar qanday bo'lishi kerak?". 08.07.2020. Uza: O'zbekiston Milliy axborot agentligi: <http://uza.uz/posts/208815>.